

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
SAMARAQAND DAVLAT UNIVERSITETI
KATTAQO'RG'ON FILIALI**

Ro'yxatga olindi:
№ BD_60111400.2.00.

"TASDIQLAYMAN"

SamDUKF direktori:

Sh.R. Urakov

2023 yil



**TAHLILIV O'QISH
FANINING O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 – Ta'lim
Ta'lim sohasi:	110000- Ta'lim
Ta'lim yo'nalishi:	60111400 – O'zbek tili va adabiyoti

Fan/modul kodi TO'M		O'quv yili 2024-2025	Semestr 3	ECTS – Kreditlar 4	
Fan/modul turi Tanlov		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	umumiy (soat)	
	Tahliliy o'qish	60	60	120	
2.	<p style="text-align: center;">I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad –Mustaqillik davri o'quv adabiyotlari sifatini yaxshilash, Keyingi davr nashr ishlaridagi kamchiliklarni bartaraf etish, nashriyot va matbaa ishlari ko'lamini yanada oshirish, insonlarga manzur bo'ladigan kitob,gazeta-jurnal, darsliklar va shu kabi o'quv hamda ma'naviy-ma'rifiy va badiiy adabiyotlar rivojiga hissa qo'shish.</p> <p>Fanning vazifasi – Noshirlik va matbaa ishlaridagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun bilimli, yetuk, savodxon mutaxassislarni voyaga yetkazish. Noshir, muharrir, musahhih kabi vazifalarda faoliyat yurituvchi mutaxassislarni nafaqat bilim, saviya, tafakkur darajasini yuksaltirish, balki, ularning jamiyatga yuksak ma'naviyatli hamda milliy mafkurasi boy mutaxassislarni sifatida etkazib berish.</p> <p style="text-align: center;">II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) 30</p> <p>1. “Alpomish ” dostonidan parchaning fonetik, leksik-frazeologik tahlili. Tahliliy o'qish fanining maqsad va vazifalari, boshqa fanlar bilan uzviy aloqadorligi. “Alpomish” dostoni matnini ifodali o'qish, savol va topshiriqlar bilan ishlash, so'z va iboralarning farqli jihatlarini tahlil qilish.</p> <p>2“Rustamxon” dostonidagi onomastik birliklarni tahlil qilish. Dostonchilik maktablari va an'analari talili. Dostonning fonetik va orfoepik tahlili (obyekti, predmeti va vazifalari). Dostondagi onomastik tahlil.</p> <p>3. O'zbek xalq ertaklari tahlili. Ertak haqida umumiy ma'lumotga ega bo'lish. Xalq og'zaki ijodi namunalarini tahlilga tortish, tarixiy va arxaiik so'zlar ustida ishlash, fonetik-leksik tahlil namunalari bilan ishlash. Stilistik vositalar tasnifini tuzish.</p> <p>4. Hadislar va ularning leksik, morfologik, sintaktik. Vatandosh hadisnavislar haqida ma'lumot. Hadislardagi notanish so'z va iboralar ustida ishlash. Fonetik, leksik, morfemik, morfologik, sintaktik tahlil qilish.</p> <p>5. M.Qoshg'ariyning “Devon-u lug'otit-turk” asarini ilmiy va badiiy tahlil qilish. Asarning nusxalari haqida ma'lumot, ilmiy ma'lumotlar tahlili. Bugungi kunda olib borilayotgan tadqiqotlar. O'zbek tilshunosligida asosiy manba.</p> <p>6. Ahmad Yassaviy hikmarlari tahlili. Hikmat matnida qo'llangan ma'nodosh so'zlarni, misralarda qo'llangan antonim so'zlarni, so'zlarining lug'aviy ma'nosini, metonimiya asosida so'z ma'nosi ko'chgan o'rinlarni, hikmat matnida qo'llangan frazeologik</p>				

birliklarni tahlil qilish.

7. A.Navoiyning "Mahbubul qulub" asari badiiy tahlili. "Mahbub –ul qulub" asari qanday mavzularni qamrab olgan? Notiqlik san'ati va nutq madaniyati haqida berilgan fikrlar. Asar fasllari haqida ma'lumot. Asardagi yozuv tamoyillari tahlili.

8. Navoiyning "Lison ut-tayr" dostoni tahlili (leksik, semantik, badiiy, stilistik). Asarning yozilish tarixi, til xususiyati, obrazlar tahlili, majojiy obrazlarning inson tafakkuridagi o'rni.

9. "Boburnoma" asarining badiiy, onomastik birliklar tahlili. Memuar asarlarning yozilish xususiyati, o'ziga xos jihatlari, jahon adabiyotiga qo'shgan xissasi. Onomastik birliklar haqida ma'lumot, asardagi birliklar ustida ishlash va tahlil qilish

10. "Turkiy guliston yohud axloq" asaridan parcha(adolat va atolat)ning stilistik va adabiy tahlili. Asar haqida ma'lumot, yozilish tarixi. Asrda berilgan yasama so'zlar va ularning yasalishi. Asar matnidagi transpozitsiyaga uchragan so'zlar (affiksatsiya, konversiya).

11. Ch.Aytmatovning "Asrga tatigulik kun" romani stilistik tahlili. Turkiy xalqlarning iftixori bo'lmish Chingiz Aytmatov haqida ma'lumot. Yozuvchi asarlari ro'yxatini tuzish va bir-biriga bog'liq jihatlarni izohlash. Ruhiy holatni ifodalovchi frazeologik birliklar ro'yxatini shakllantirish.

12. "Chinor" romanidagi antroponimik birliklar tahlili. Asardagi o'zbek xalqiga xos bo'lgan urf-odatlarini aniqlang. Ochilboboning qishlog'i nomi va toponimlar ustida ishlash. Chinor va Ochilboboning qanday umumiy jihatlarni tahlil qilish. Asardagi obrazlar tahlili va onomastikasi ustida ishlash.

13. T.Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" asari badiiy, stilistik tahlili. Asardagi personajlar, umumiy voqealar, voqealar rivoji, kulminatsiyasi, tugun va yechimni badiiy – stilistik tahlili.

14. Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romani tahlili. Roman haqida umumiy ma'lumot, yozuv tamoyili, orfoepik xususiyatlari, leksik tahlili, yasama so'zlarning yasalishi, joy nomlari va badiiy –stilistik, tarixiy (joy nomlari, tarixiy shaxslar, voqealar) tahlili.

15. Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani badiiy tahlili. Asar haqida ma'lumot, yozilish tarixi, o'zbek adabiyoti va romanchiligida tutgan o'rni. Romandagi fonetik-leksik, frazeologik, toponimik, antroponim, morfologik, sintaktik tahlili.

III. Amaliy (yoki seminar yoki laboratoriya) mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

1. "Alpomish" dostonidan parchaning fonetik tahlili
2. "Rustamxon" dostonidan parchaning fonetik, leksik-frazeologik tahlili
3. "Uch og'a-ini botirlar" ertagi.
4. Hadislardan parchaning fonetik-leksik tahlili
5. M.Qoshg'ariyning "Devon-u lug'otit-turk" asarining ilmiy tahlili
6. Hikmatlarning leksik-frazeologik tahlili

7. "Mahbub -ul qulub" asaridagi "Nasihah ahli va voizlar zikrida" qismining orfografik, orfoepik va fonetik, leksik-frazeologik tahlili
8. Navoiyning "Lison ut-tayr" dostoni tahlili.
9. "Boburnoma" asari tahlili. Dostonni to'liq o'qib chiqish.
10. Ch. Aytmatovning "Asrga tatigulik kun" romani tahlili. Asarni to'liq o'qib chiqish
11. "Chinor" romanining badiiy tahlili. Asarni to'liq o'qib chiqish.
12. T. Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" asari tahlili. Asarni to'liq o'qib chiqish.
13. Oybekning "Navoiy" romanidan parcha tahlili
14. "O'zbekim" qasidasining leksik-frazeologik tahlili.
15. A. Oripov "O'zbekiston" qasidasi tahlili

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. "To'nyuquq" bitiktoshi matni bilan to'liq tanishib chiqish.
2. To'nyuquq, Kultegin bitiktoshlarini o'qish va sintaktik tahlil qilish.
3. "Rustamxon" dostoni tahlili. Dostonni to'liq o'qib chiqish.
4. A. Navoiyning "Mahbubul qulub" asari tahlili. Dostonni to'liq o'qib chiqish.
5. "Boburnoma" asari tahlili. Antroponimlar jadvalini yaratish. Dostonni to'liq o'qib chiqish.
6. "Alpomish" dostonidan parcha tahlili. Dostonni to'liq o'qib chiqish.
7. "Chinor" romanining badiiy tahlili. Asarni to'liq o'qib chiqish.
8. Ch. Aytmatovning "Oq kema" qissasi tahlili. Asarni to'liq o'qib chiqish.
9. Ch. Aytmatovning "Asrga tatigulik kun" romani tahlili. Asarni to'liq o'qib chiqish.
10. "Kuntug'mish" dostoni tahlili.
11. "Malikayi ayyor" dostoni tahlili.
12. Odil Yoqubovning "Oq qushlar, oppoq qushlar" romani tahlili.
13. Asqad Muxtorning "Chinor" asari stilistik tahlili.
14. Ch. Aytmatovning "Asrga tatigulik kun" romanida qo'llanilgan iboralar tahlili.
15. T. Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" asarida qo'llanilgan o'xshatishlar tahlili.

3. V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- "Tahliliy o'qish" fani haqida *tasavvur va bilimga ega bo'lishi*;
- Muharrir sifatida faoliyat yuritish jihati va *ko'nikmalariga ega bo'lishi*;
- Shu bilan birga texnik, badiiy, tahliliy jihatdan yuksak saviyali, bilimli mahoratli muharrir *malakasiga ega bo'lishi kerak*.

4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- Ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- tarqatma materiallar;
- ko'rgazmali qurollar;
- Kompyuter;
- Internet yangiliklari;

	<ul style="list-style-type: none"> • muammoli ta'lim; • qiyosiy tahlil.
5.	VII. Kreditni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish.
6.	<p style="text-align: center;">Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar hamda axbort manbalari</p> <p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Yo'ldoshev M., Isoqov M., Haydarov Sh. Matn tahlili. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010 2. Yo'ldoshev B. Frazologik uslubiyat asoslari. – Samarqand, 1999. 3. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008. 4. Yo'ldoshev M. Yadgarov Q. Badiiy matnning lisoniy tahlili fanidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2007. <p style="text-align: center;">2.Qo'shimcha adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Haydarov M. Xalq og'zaki ijodi namunalarida tarbiya masalalari. – Toshkent: Fan, 2004. 2. Alpomish. – Toshkent: Sharq, 1998. 3. Shomahmudov Sh. Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. –Toshkent: O'zbek ensiklopediyasi bosh redaksiyasi, 1990. 4. O'zbek tilining imlo lug'ati . T:2020. <p style="text-align: center;">3. Internet ma'lumotlari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. www.ziyo.net 2. www.literature.uz
7	Fan dasturi Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali kengashining 2023-yil <u>31</u> - <u>08</u> dagi <u>10</u> -son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	Fan/modul uchun mas'ullar: D.Ganiyeva – SamDUKF, O'zbek tili va gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi
9.	Taqrizchilar: M.Djakbarova—SamDUKF, O'zbek tili va gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi (ichki) G'.X.Hamroyev – Pedagogika fanlari doktori (tashqi)